

ANDIJON VILOYATI TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon davlat texnika instituti
“Avtomobilsozlik va transport” fakulteti
“Transport logistikasi” yo‘nalishi
K 46-22-guruh talabasi
Usmonov Azizbek XXX
E-mail: sr4usmanov9717@gmail.com
+998999937328

Annotatsiya: Mazkur maqolada transport va infratuzilma tizimining mamlakat iqtisodiyoti hamda hududiy rivojlanishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Transport infratuzilmasining iqtisodiy samaradorlikni oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish, aholi harakatchanligini ta‘minlash va hududlararo integratsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida, xususan Andijon viloyatida jamoat transporti tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va tizimli kamchiliklar tahlil etilgan. Tadqiqotda jamoat transporti yetishmovchiligi, yo‘l tirbandliklari, eskirgan infratuzilma, texnologik integratsiyaning sustligi, ekologik muammolar hamda transport tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligi asoslab berilgan hamda transport tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Transport infratuzilmasi, jamoat transporti, logistika, raqamli texnologiyalar, aqlli transport tizimi, yo‘l harakati, tirbandlik, ekologik barqarorlik, transport modernizatsiyasi, yo‘lovchi tashish, infratuzilma rivojlanishi, transport samaradorligi, hududiy integratsiya, real vaqt monitoringi, elektron to‘lov tizimi.

Bugungi kunda transport infratuzilmasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, aholi harakatchanligini ta‘minlash, hududlararo va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Transport tarmog‘ining samarali faoliyati mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida transport tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan bo‘lib, avtomobil, temir yo‘l, havo va jamoat transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda[2].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jamoat transporti tizimini isloh qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz farmon va qarorlarida transport infratuzilmasini modernizatsiyalash, ekologik toza va qulay sharoitdagi jamoat transportini joriy etish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Andijon viloyati, iqtisodiy va demografik jihatdan faol hudud sifatida, ushbu islohotlarning faol tajriba maydoniga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023yil 16-fevraldagi “Jamoat transport tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Andijon shahrining transport infratuzilmasini takomillashtirish hamda Andijon shahri ham transport tirbandliklari, ekologik muammolar va transport tizimidagi samarasizliklar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ayniqsa, jamoat transporti harakati samaradorligini ta‘minlash, uning shahar infratuzilmasidagi ustuvorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir[3].

Transport – bu odamlar, tovarlar yoki yuklarni bir joydan boshqa joyga tashish uchun ishlatiladigan vositalar, tizimlar va jarayonlar majmui. Shu bilan bir qatorda transport deganda, yuklar va yo‘lovchilarni ma‘lum texnik vositalar yordamida makon bo‘ylab harakatlantirish jarayoni tushuniladi. Transport tizimi avtomobil, temir yo‘l, havo, suv va quvur transporti kabi asosiy turlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu transport turlari

iqtisodiyotning turli sohalariga xizmat qiladi va ularning rivojlanish darajasi mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi[5].

1.2.1-jadval

No	Transport turlari	Izoh
1	Avtomobil	Mashina, avtobus, yuk mashinalari orqali harakatlanish
2	Temiryo‘l	Poyezdlar va lokomotivlar orqali yuk va yo‘lovchi tashish
3	Havo	Samolyotlar, vertolyotlar yordamida uzoq masofalarga yetkazish
4	Suv	Kemalar, qayiq va paromlar orqali tashish
5	Tranzit va shahar	Metro, tramvay, taksi va shahar avtobuslari

1.2.1-jadval. Transport turlari va ularning vazifalari.

Shuningdek, transport tizimi – bu nafaqat vositalar, balki yo‘llar, ko‘priklar, terminal va logistika tizimlarini ham o‘z ichiga oladi. Transport deganda, yuklar va yo‘lovchilarni ma’lum texnik vositalar yordamida makon bo‘ylab harakatlantirish jarayoni tushuniladi. Transport tizimi avtomobil, temir yo‘l, havo, suv va quvur transporti kabi asosiy turlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu transport turlari iqtisodiyotning turli sohalariga xizmat qiladi va ularning rivojlanish darajasi mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Transport ishlab chiqarish, savdo, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minlaydi.

Infratuzilma – bu jamiyat yoki biror tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan asosiy texnik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar majmuasi.

Oddiyroq qilib aytganda, infratuzilma – biror hudud yoki sohaning ishlashi uchun zarur bo‘lgan “poydevor” va xizmatlar[7].

1.2.2-jadval

№	Infratuzilma turlari	Izoh
1	Transport infratuzilmasi	Yo‘llar, ko‘priklar, temir yo‘l, aeroport, transport terminali
2	Energetika infratuzilmasi	Elektr tarmoqlari, gidroelektr stansiyalar, gaz quvurlari
3	Suv va sanitariya infratuzilmasi	Suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi
4	Axborot infratuzilmasi	Internet tarmoqlari, telekommunikatsiya stansiyalari

1.2.2-jadval. Infratuzilma turlari va vazifalari.

Shunday qilib, infratuzilma – bu jamiyat yoki korxonada ishlashini imkonini yaratuvchi asosiy tizimlar to‘plami.

Transport va infratuzilma tizimi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda transport nafaqat yuk va yo‘lovchilarni bir hududdan ikkinchisiga ko‘chirish vositasi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlovchi, hududlararo va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli transport va infratuzilma tushunchalarini ilmiy jihatdan asoslab berish bitiruv malakaviy ishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport infratuzilmasi esa transport tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan muhandislik-texnik va tashkiliy obyektlar majmuasidan iboratdir. Transport infratuzilmasiga avtomobil yo‘llari, temir yo‘l liniyalari, ko‘priklar, tonnellar, yo‘l o‘tkazgichlar, vokzallar, aeroportlar, portlar, logistika va terminal markazlari, avtoturargohlar, shuningdek transport harakatini boshqarish va xavfsizligini ta‘minlovchi texnik vositalar kiradi. Ushbu infratuzilma obyektlari transport jarayonining uzluksizligi, xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[8].

Shuningdek, transport infratuzilmasi investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan yo‘l va logistika tarmoqlariga ega hududlar mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa yangi ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishiga, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishiga va iqtisodiy

o‘shirish sur‘atlarining tezlashishiga olib keladi. Shu jihatdan transport va infratuzilmani modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda transport infratuzilmasini rivojlantirishda ekologik barqarorlik, raqamli texnologiyalarni joriy etish va harakat xavfsizligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Aqlli transport tizimlari”, energiya tejamkor transport vositalari va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish orqali transport tizimining samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Bu esa transport va infratuzilmaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatini ham kuchaytiradi.

Transport va infratuzilmaning rivojlanganligi hududlarning iqtisodiy faolligini oshiradi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi hamda mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Ayniqsa, hududiy rivojlanishda transport infratuzilmasining roli katta bo‘lib, u chekka va qishloq hududlarining markazlar bilan bog‘lanishini yaxshilaydi, aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada aholi bandligi oshadi, mehnat resurslarining erkin harakati ta‘minlanadi va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar qisqaradi.

Ma‘lumot o‘rnida aytganda, transport va infratuzilma tizimi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim asosi bo‘lib, hududlararo integratsiyani ta‘minlaydi, aholi turmush darajasini oshiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bois transport va infratuzilma masalalarini ilmiy asosda o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Zamonaviy sharoitda transport tizimini modernizatsiya qilish global raqobatbardoshlikni oshirish, logistika samaradorligini yaxshilash va hududlararo integratsiyani kuchaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi[5].

1.5.10-jadval

№	Yo‘nalishlar	Izoh
----------	---------------------	-------------

1	Jamoat transporti	<p>Yetishmovchiligi aholining transportga bo'lgan aniq real vaqtdagi ehtiyoji, mavjud transport vositalari soni shuningdek yo'nalishlar yoki qatnov vaqtining to'liq qondirilmasliligi bilan ifoda etiladi. <i>Rejalashtirilmaganligi</i> – bu o'z navbatida transport tizimlarini puxta tahlil qilinmaganligi va aniq reja asosida tashkil etilmaganligi bilan ifodalaniladi. <i>Yo'nalish qamrovi past</i> – bu tushuncha shuni anglatadiki transport yo'nalishlari belgilangan hududning barcha aholi yashash joylari shu bilan bir qatorda ish joylari va xizmat ko'rsatish markazlarini qamrab olmaganligida</p>
2	Tirbandlik va yo'l harakati	<p>Shahar ichida tirbandliklari ma'lumot o'rnida shuni aytish lozimki bunda yo'l harakati qatnashchilarining soni yo'lning o'tkazuvchanlik qobiliyatidan oshib ketishi va shu sabab harakat tezligining pasayishi yoki to'xtab qolish holatlarini o'z ichiga oladi. <i>Boshqaruvning pastligi</i> – bu aynan yo'l harakati tizimida jarayonlarni muvofiqlashtirish samarali tashkil etilmaganligi natijasida vujudga keladigan tartibsiz va samarasiz yoki rejalashtirish va uni barqarorlashtirish yetarli emasligini aks ettiruvchi holat.</p>
3	Yo'l infratuzilmasi	<p>Eskirgan yoki yaroqsiz yo'llar bu uzoq muddat davomida foydalanish shuningdek noto'g'ri qurilish (yo'l qurilish sohasida), sifatning pastligi yoki vaqtda ta'mirlanmaganligi sababli transport harakati uchun xavfsiz va qulay sharoit ta'minlay</p>

		<p>olmaydiagn yo‘l infratuzilmasi tushuniladi.</p> <p><i>Alternativ yo‘nalishlar yetishmasligi</i> – bunda ma`lum bir hududga borish yoki undan chiqish uchun faqat bitta asosiy yo‘l mavjudligi, zaxira yo‘llarning mavjud emasligi</p>
4	Texnologik integratsiya	<p>Real vaqt monitoring bu holatda quyidagilarni misol tariqasida misol qilib keltirish mumkin ya`ni qatnov jadvaliga rioya etilishi, tirbandlik darajasi, yo‘lovchi oqimi, yo‘l-transport hodisalari va harakat joylashuvini to‘laqonli kuzatish va uni tahlil qilish sust ekanligi. <i>Elektron to‘lov va axborot tizimlari kam qo‘llanilishi</i> – bunda zamonaviy raqamli texnologiyalar (bank kartasi, ATTO, QR-to‘lov) dan to‘laqonli foydalanmaslik, aksincha uni o‘rniga naqd pul to‘lovlarini amalga oshirish</p>
5	Logistika va xalqaro tarmoqlar	<p>Mintaqaviy hamkorlik ma`lum bir hudud yoki transport tizimining boshqa mintaqalar bilan samarali bog‘lanish imkoniyatining yetarli darajada emasligi holati. Bu sabab hududning iqtisodiy rivojlanishi, eksport va import imkoniyatlari cheklanishi, transport tizimi samaradorligi pasayishi kabi global muammolarga olib kelishi mumkin</p>
6	Avtomobillarda ishlatiladiganyonilg‘i bo‘yicha	<p>transport tizimining asosiy qismi neft mahsulotlariga bog‘liq bo‘lib, bu davlatni tashqi bozorlardagi narx o‘zgarishlariga va ta’minot xavflariga qaram qiladi. Yonilg‘i importiga yuqori darajada bog‘liqlik iqtisodiy barqarorlikka salbiy</p>

		ta'sir ko'rsatadi va energiya xavfsizligini pasaytiradi
7	Kredit va lizing foizlari balandligi	transport vositalarini xarid qilish uchun ajratiladigan kredit va lizing stavkalarining yuqoriligi tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy yukni oshiradi. Bu esa avtomobil parkini yangilashni sekinlashtiradi, zamonaviy va tejamkor transport vositalariga o'tishni cheklaydi
8	Transportning ekologik ko'rsatkichi va eskilangan variantlar	ko'plab eski transport vositalari yuqori darajada zararli gazlar chiqaradi, bu esa atrof-muhit ifloslanishiga va sog'liq muammolariga olib keladi. Ekologik standartlarga mos kelmaydigan avtomobillarning ulushi yuqori bo'lishi barqaror transport tizimini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi

1.5.10-jadval. Transport infratuzilmasida mavjud muammolar va tizimli kamchiliklar.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish evaziga transport infratuzilmasini yaxshilash va uni yanada rivojlantirish asosiy omil hisoblanadi. Transport infratuzilmasini yaxshilash natijasida hududlarda yo'lovchi va yuk tashish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy yo'llar, transport vositalari va raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi harakat tezligini oshirib, tirbandliklarni kamaytiradi hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, jamoat transporti xizmatlari sifati yaxshilanib, aholining qulay va xavfsiz transportdan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Transport infratuzilmasining rivojlanishi logistika xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot yetkazib berish jarayonini tezlashtiradi va iqtisodiy faoliyatning o'sishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori kamayib, ekologik holat yaxshilanadi. Natijada hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholining turmush darajasi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 16-fevraldagi PQ–59-sonli “Jamoat transport tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1998.
4. Abdukarimov B.A. Transport logistikasining nazariy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2020.
5. Axmedov Q.X. Zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
6. Yo‘ldoshev S.T. Shahar transport tizimlarini boshqarish va rejalashtirish. – Toshkent: TDTrU nashriyoti, 2019.
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Milliy iqtisodiyotda transport infratuzilmasining o‘rni. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2022.